XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR
KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2023 - yil 29 - dekabr VI-70-178-8-121-K/23 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahrining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ_886-son Qonuniga muvofiq hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil _dekabrdagi –sonli qarorini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ 886-son Qonuni rahbarlik, ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun)ga muvofiq, Termiz shahar mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 177 mlrd. 168 mln. 544 ming so‘m, xarajatlari 208 mlrd. 779 mln. 316 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 31 mlrd. 610 mln. 772 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Termiz shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

4. 2024-yil uchun Termiz shahrining shahar budjetidan budjet mablag‘larini oluvchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

5. 2024-yil uchun Termiz shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlar bo‘yicha shahar mahalliy budjeti taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Termiz shahar G‘aznachilik xizmati bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjetining shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 mlrd. 855 mln. 560 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Termiz shahar budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Termiz shahar budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2024-yil uchun Termiz shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qonunga asosan 2024-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar shahar budjetiga to‘liq taqsimlanadi:

- **aylanmadan soliq;**
- **yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i;**
- **jismoniy shaxslarning yer solig‘i;**
- **jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;**
- **yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ;**
- **noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun**

soliq;

- **ijara to‘lovlari;**

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat va shahar budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

- **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;**
- **suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari);**
- **benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i;**
- **yuridik shaxslar yer solig‘i;**
- **qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar**
- **qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar**

11. Termiz shahar hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Dusmuratov, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Kuchkinov), soliq inspeksiyasi (S.Muxamadiyev) birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Shahar soliq inspeksiyasi (S.Muxamadiyev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Termiz shahar bo‘limi (Yo.Turdiyev), shahar soliq inspeksiyasi (S.Muxamadiyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

14. Shahar ichki ishlar boshqarmasi (O‘.Shukurov), shahar yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (I.Batirov), majburiy ijro byurosi Termiz shahar bo‘limi (Yo.Turdiyev), shahar Adliya bo‘limi (A.Jabborov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

15. Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya

etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

16. Shahar hokimi (O.To‘rayev)ga:

Shahar budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari shahar Kengashi, yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etilsin.

17. Shahar hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari va tegishli aloqador tashkilot rahbarlari mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

18. Shahar hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Sh.Dusmurodov) va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari shahar Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

19. Shahar hokimligi Axborot xizmati (lavozimiga ko‘ra) va “Termiz oqshomi” gazetasi tahririyati (A.Radjabov)ga mazkur qarorni ijtimoiy tarmoqlar hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

20. Yuqorida berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har chorak yakunida xalq deputatlari Termiz shahar Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

21. Mazkur qarorning bajarilishini shahar hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Sh.Dusmuratov), ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Fayzullayev) zimmasiga yuklansin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **O‘.I.To‘rayev**

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-178-8-121-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami	JAMI	143 122 200,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i			
2	Aylanmadan soliq	22 339 000,0		
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	45 755 100,0		
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	3 294 000,0		
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i			
6	Aksiz solig‘i, jami	13 319 600,0		
	shu jumladan:			
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*13 319 600,0*		
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	25 103 000,0		
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	14 655 000,0		
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	8 077 500,0		
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 051 000,0		
11	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	80 000,0		
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	228 000,0		
13	Davlat boji			
14	Jarimalar			
15	Ijara to‘lovi	220 000,0		
16	Davlat mulkini xususiylashtirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar			
	Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi bıodjetlararo transfertlar	**65 657 116,0**		
	Daromadlar hammasi	**208 779 316,0**		

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-178-8-121-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Termiz shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘ ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**208 779 316,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**208 779 316,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1.	**Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi tashkilotlarga**	**20 612 391,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 612 391,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
2.	**Tibbiyot birlashmasi tashkilotlarga**	**95 158 324,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	95 158 324,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
3.	**Madaniyat bo‘limi tashkilotlarga**	**6 187 493,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 187 493,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
4.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi tashkiloti**	**4 438 565,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 438 565,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
5.	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi tashkilotlarga**	**5 432 856,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 432 856,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
6.	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**46 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	46 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
7.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi tashkiloti**	**847 698,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	847 698,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
8.	**Ichki xo‘jalik avtomabil yo‘llarni ta'mirlash xarajatlari**	**4 000 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 000 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
9.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**21 374 211,0**
.	*shu jumladan:*	
	joriy xarajatlar	21 374 211,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
10.	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**2 359 362,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 359 362,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
11.	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi tashkiloti**	**2 035 096,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 035 096,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
12.	**Davlat soliq inspekciyasi tashkiloti**	**5 738 083,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 738 083,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
13.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**28 468 354,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	28 468 354,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
14.	**Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo‘limlari saqlash xarajatlari**	**3 563 868,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 563 868,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
15.	**Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati**	**233 557,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	233 557,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
16.	**Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari**	**37 562,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	37 562,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
17.	**Davlat boshqaruv hokimligi**	**6 314 461,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 314 461,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
18.	**Ijtimoiy ko‘niktirish markazi**	**75 875,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	75 875,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
19.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 855 560,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 855 560,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-178-8-121-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq *	Yuridik shaxslar yer solig‘i **	Ijara to‘lovlari	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar
1	Termiz shahri	100	100	100	100	10	50	40	100	100	50	100	50	50

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-178-8-121-K/23-son qaroriga
4-ilova

Termiz shahar mahalliy budjetlarining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so'mda

		Hudud nomi	Daromad	Xarajat
		JAMI	**177 168 544,0**	**208 779 316,0**
		Termiz shahar	177 168 544,0	208 779 316,0

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-178-8-121-K/23-son qaroriga
5-ilova

Termiz shahar mahalliy budjetining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	**shundan**,aksiz solig'I tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar*
JAMI	**65 657 116,0**	**34 046 344,0**
shundan		
Termiz shahar	65 657 116,0	34 046 344,0

*tamaki,alkogol mahsulotlari,shu jumladan,piva(import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mabil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-178-8-121-K/23-son qaroriga
6-ilova

Termiz shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/R	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**1 094 130,0**
	shundan	
1	Termiz shahar	1 094 130,0